
Bosh Qomusimiz "Yangi O'zbekiston - ijtimoiy davlat" tamoyillarini mustahkamlash jarayonida...

Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashi kotibiyati mudiri M. Mamajonov, 2-sektor rahbari, tuman prokurori R.Madaliev ishtirokida umumxalq muhokamasiga qo'yilgan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasining mazmun mohiyati yuzasidan ochiq muloqot o'tkazildi.

Tuman prokurori jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar bo'lganligi bosh Qomusimizda "Yangi O'zbekiston - ijtimoiy davlat" tamoyillarini mustahkamlash, turli islohotlar jarayonida inson manfaatlari bosh mezon bo'lishini ta'minlash, xususiy mulk daxlsizligini, yerga egalik qilish huquqini, fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini konstitutsiyaviy darajaga ko'tarish, davlat hokimiyati asoslarini takomillashtirish dolzarbligini ko'rsatib qo'yganligini tushuntirib o'tdi. Shuningdek konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlar inson manafaatlariga xizmat qilishini ta'kidladi

2022-06-28 15:41:09